



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 26-dekabr, seshanba,  
153 (23.874)-son

**KUN  
HIKMATI**

Jurnalistika  
bugunning,  
adabiyot  
esa ertaning  
in'ikosidir

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz



## SHAXMAT YULDUZLARI YURTIMIZDA

**25–30-dekabr kunlari Samarqandda shaxmatning blits va rapid yo'nalishlari bo'yicha VI jahon chempionati o'tkazilmoqda.**

Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan 2017-yildan buyon har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan chempionatning bu galgi bahslarida 52 mamlakatdan 338 nafar, jumladan, yurimizdan 33 nafar shaxmatchi ishtirok etmoqda. Qatnashchilar orasida dunyo reytingida yuqori o'rinlarda turgan Magnus Karlsen, Yan Aleksandroviich, Fabiano Karuana, Nodirbek Abdusattorov, Levon Aronyan kabi yetakchi shaxmat yulduzlari, chempionlar borligi VI jahon chempionati nufuzi balandligidan dalolat beradi.

Umumiy sovrin jamg'armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etadigan mazkur jahon chempionati dasturiga shaxmatning blits va rapid yo'nalishi kiritilgan bo'lib, FIDE reytingida 2550 (erkaklar) va 2250 (ayollar) reytingidagi past bo'lmagan sportchilar ishtirok etishi belgilangan.

Chempionatning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov, Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) prezidenti Arkadiy Dvorkovich, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi rahbari Alisher Sa'dullayev hamda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov so'zga chiqib, ishtirokchilarni tabrikhladi.

O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov FIDEning mazkur nufuzli chempionati mamlakatimizda o'tkazilayotgani yurtimizda keyingi yillarda sportni, jumladan, shaxmatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ekanligini ta'kidladi. Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori va g'amxo'rligi tufayli bugungi kunda mamlakatimizda shaxmat turi ommalashib bormoqda. Buning natijasida sportchilarimiz

Osiyo va jahon birinchiliklarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

– Markaziy Osiyo mintaqasida bugungi kunda shaxmatning rivojlanib borishida O'zbekistonning katta roli bor, – dedi FIDE prezidenti Arkadiy Dvorkovich. – Bu zaminda shaxmat bir necha asrlik tarixga ega. Biz O'zbekistonning boy shaxmat an'analarini hurmat qilamiz va uning yaqin orada shaxmat bo'yicha eng kuchli davlatlardan biriga aylanishiga ishonamiz. Ochilish marosimi davomida badiiy dastur namoyish etiladi hamda musobaqalarga qur'a tashlandi.

VI jahon chempionatining rapid yo'nalishi 26-28-dekabr kunlari 13 turda, blits yo'nalishi esa 28-30-dekabr kunlari 21 turda bo'lib o'tadi.

– Shaxmatning rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha o'tgan yil Qozog'istonda o'tkazilgan V jahon chempionatida ilk bor qatnashgandim, – deydi shu yilning noyabr oyida shaxmat bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida chempion bo'lgan Afro'za Hamdamova. – Bu musobaqa men uchun tajriba to'plash uchun imkoniyat bo'lgandi. Yurtimizda o'tkazilayotgan chempionatga puxta tayyorgarlik ko'rdim. Albatta, raqiblar nomdori va juda kuchli. Shunga qaramay musobaqalarda yaxshi ishtirok etib, kuchli o'nlikka kirishni maqsad qilganman.

VI jahon chempionati oldidan o'tkazilgan matbuot anjumanida xalqaro shaxmat federatsiyasi va yurtimiz sporti mutasaddilari chempionatga ko'rilgan tayyorgarlik, mamlakatimizda shaxmatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, matbuot anjumanida rapid va blits bo'yicha amaldagi jahon chempioni Magnus Karlsen hamda rapid bo'yicha 2021-yildagi jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov ham ishtirok etib, jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

**O'z muxbirimiz.**

## DASTURLASH MAKTABI OCHILDI

**Samarqand shahrida "Programming school" nomli bepul dasturlash maktabi faoliyat boshladi. Maktabning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov, viloyat hokimi E.Turdimov hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.**

Tadbirida ushbu dasturlash maktabi nafaqat O'zbekistonning texnologiyalarga qiziquvchi aholisi, balki qo'shni mamlakatlardan kelgan mehmonlar uchun ham foydali o'quv maskaniga aylanishi, shuningdek, ushbu maktab respublikamizda IT sohasini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Dasturlash maktabiga 18 yoshdan

oshgan, IT mutaxassisi bo'lish istagi borlar qabul qilinadi. Maktabda tarkibiy dasturlash (C), obyektga yo'naltirilgan dasturlash (C++), kompyuter tarmoqlari, algoritmlar, ma'lumotlar bazalari (SQL), amaliy dasturlash (Java, Python, Golang), shuningdek, mobil dasturlash, "Frontend", "Backend", "ML & DS", "Big Data", "GameDev" va boshqa yo'nalishlarda tahsil olish mumkin.

O'quv mashg'ulotlari raqamli ta'lim platformasida, sohaga yo'naltirilgan, moslashuvchan va doimiy rivojlanib boradigan kontent orqali amalga oshiriladi. "Peer-to-peer" metodikasi, ya'ni ma'ruzachilar, baholar va ma'ruzalariz o'qitish yuqori sifatli ta'limga erishishga imkon beradi.

– Axbort texnologiyalarini o'rganish zamon talabi, qolaversa, uni bepul o'rganishni kim ham xohlamaydi, – deydi Xu-

mora Beknazarova. – Bu maktab IT mutaxassisi bo'lib yetishish uchun bizga zo'r imkoniyat bo'ldi. O'quvchilar bilan tajriba almashamiz, topshiriqlarni birgalikda bajarib, shaxsiy va jamoaviy IT loyihalarini tayyorlaymiz. Ikki yillik kursdan keyin IT muhandisligi va dasturlash ixtisosliklari bo'yicha faoliyat boshlaymiz.

Maskanda ta'limdagi asosiy e'tibor amaliy topshiriqlarni bajarishga, kuchli dasturlash ko'nikmalarini o'zlashtirishga, soft skills rivojlantirishga qaratilgan. Bular zamonaviy IT mutaxassisining asosiy xususiyatlaridir. O'qitish bosqichlaridan biri uch oylik majburiy amaliyotdir. Har bir ishtirokchi amaliyot boshlangunga qadar kamida uchta dasturlash tilini o'rganib oladi va bu bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llaydi.

**F.R.O'ZIBOYEV.**

## "YIL AYOLI" da SAMARQANDLIKAR HAM FAOL



**Poytaxtimizdagi O'zbekiston anjumanlar saroyida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan "Yil ayoli" hamda "Gender tenglik faoli" milliy tanlovlarining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.**

Oliy Majlis Senati Kengashining qaroriga asosan, har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan tanlovda Senat raisi Tanzila Norboyeva ishtirok etib, g'oliblarni qutladi. Anjumanda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning faolligi ortgani raqamlar misolida aytiladi. Xususan, bugun ayollarning boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik yo'nalishida 35 foizga, oliy ta'limda 47 foizga yetdi.

Ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy

sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi gender huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan davlatlar qatoriga kirdi.

Tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichlari-

da 1356 nafar ayol qatnashdi. Respublika bosqichida 11 ta nominatsiya bo'yicha 144 ta hujjat taqdim etilgan. "Yil ayoli" tanlovining respublika bosqichida oliy o'rin hamda uchta faxrli o'rinlar sohiblari Prezident sovg'asi – avtomobil bilan taqdirlandi. Belgilangan nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarga diplom va pul mukofotlari topshirildi.

Quvonarlisi, mazkur tanlovda samarqandlik xotin-qizlar ham faol ishtirok etdi. "O'z kasbining ustasi bo'lgan yil ayoli" nominatsiyasida Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi Navbahor Tursunova g'oliblikni egalladi. Shuningdek, "Gender tenglik faoli" tanlovida Samarqand televideniyesi muxbiri Nozigul Rustamova "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi teledastur" nominatsiyasi bo'yicha faxrli uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

"Yil ayoli" tanlovining Gran-pri sovrini Jizzax shahridagi 26-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Ro'zigul Orziqulovaga nasib etdi. Unga Chevrolet Onix avtomobili topshirildi.

**Durdona YUNUSOVA, viloyat pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi.**



## INDALLOSINI AYTGANDA...

**Sharof UBAYDULLAYEV, taniqli jurnalist, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi raisi o'rinbosari:**

– O'zbek matbuotining oltin davrini eslaganda, avval, ko'plab iqtidorlarga katta maktab vazifasini o'tagan "Zarafshon" gazetasi jashoratli rahbari, qolaversa, "Gishloq haqiqati" va "Селская правда" gazetalariga bosh muharrirlik qilgan, 1991-yilda "Xalq so'zi" gazetasi asoschilaridan biri va ilk muharriri bo'lgan, tabiatan adolatparvar, ustoz jurnalist Ahmadjon Muxtorov nomi yodga tushadi.

**2-3-sahifalarga  
qarang!**

**Bugunning gapi**

**Aslida u dastlab Putin rejimiga qarshi shaxs bo'lgan. Hatto bugun rus hukumati qamoqda ushlab turgan muxolifat vakili Navalniy bilan hamkorlik ham qilgan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda Qrim qo'shib olingach, amaldagi boshqaruv tarafdori, targ'ibotchisiga aylangan.**

U ayni paytda partiya lideri ham hisoblanadi. Ha, to'g'ri topdingiz, gap Rossiya harbiy xizmatchisi Zaxar Prilepin haqida.

Bundan 4-5 kun ilgari u demografik inqirozdan qutulish haqidagi savolga javob qaytarib, katta shov-shuvg'a sabab bo'ldi. Bugun uni tanimaydigan, aniqrog'i, ism-sharifini eshitmagan o'zbekni topish amirmahol.

Shu "daraja"ga erishish uchun dastlab migrantlarga to'xtaldi. Ular rus tilini bilmasligini aytib, davlatini birlashtirib qo'yaloqaylik, dedi.

Yanayam taajjublisi, bunga migrantlarning o'zi rozi, degan iddaoni keltirdi.

Xalqaro jinoyatchi, propandist sifatida Yevropa-ga kiritilmaydigan shaxslar ro'yxatidagi Prilepin shu tariqa o'zbek jamiyatida keng muhokama uchun mavzu bo'ldi. Shu kunlarda qaysi davraga kirmang, "Rossiya O'zbekistonni qo'shib olarmish", degan xavotirli gapni albatta, eshitasiz.

**CHINDAN SHUNDAY XAVF BORMI?**

Tahlilchilarga ko'ra, bugun Rossiyada imperiyachilik kayfiyati kuchaygan. Bu Markaziy Osiyo, jumladan,

## O'zbekistonning suvereniteti daxlsiz

O'zbekistonga nisbatan kuchayib borayotgani ham aytilmoqda. Nega? Chunki sobiq ittifoq mamlakatlari-dan Kavkaz qo'ldan ketib bo'ldi. Ukraina haqida bilasiz: u shu holicha qoldirilganda ham avval NATO, ko'p o'tmay, Yevropa ittifoqiga qo'shib olinishi tayin bo'lib qoldi.

Umuman, bugungi Rossiya hukumati dunyo davlatlarini do'stlar va do'st bo'lmaganlarga ajratib munosabatda bo'lmoqda. Prilepinning efrida qilgan chiqishi rus davlatchiligining ichki siyosatini anglatadi.

Bunga o'sha efrini juda katta media korporatsiya tarqatgani ham isbot bo'la oladi. Qolaversa, Prilepin orqa fonidagi bannerlardan hamkorlar ham davlat kanallari bo'lganini bilib olish mumkin. Demak, Prilepin bu gapni bilmay aytgan yoki xato gapirgan taqdirida uni efridan olish (juda bo'lmaganda kesish) mumkin edi. Biroq amalda unday bo'lmadi.

Yana bir muhim tomoni, Prilepinning matbuot anjumanida aytgan gaplarini, ya'ni bir davlatni qo'shib olish haqidagi fikrini ko'rsatuv ishtirokchilari qarsaklar bilan qo'llab-quvvatladi.

**JAMOATCHILIK QANDAY QABUL QILDI?**

Shu o'rinda qiziq bir holatni keltirib o'tish o'rinli. 7-oktabrdan keyin, isroil Falastin yerlariga bostirib kirganida turk qardoshlarimiz G'azodagi qirg'inga qarshi miting o'tkazdi. Oqibatda amaldagi hukumat o'zining strategik sherigi bo'lgan AQSHga qarshi chiqdi – Isroilning harakatlarini qoraladi. Yaqindagina munosabatlari iliqlashgan yahudiylar davlati rahbarlarini harbiy jinoyatchi, deb atadi.

Xo'sh, bizning vaziyatga buning nima aloqasi bor. Gap shundaki, ayni vaziyatda jamiyatning ziyoli qatlami o'z munosabatini bildirdi va hukumat ham shunga mos harakat qildi.

Binobarin, bu davlat darajasida hal qilinadigan masala. Qolaversa, bu kabi telbanamo gaplar birinchisi emas va aytdi-qo'ydi-da, biz Rossiya bilan strategik sherikimiz, deb xotirjamlikka berilib bo'lmaydi.

Eslab ko'ring, o'z vaqtida Rossiyaning Ukrainaga agressiv harakatni amalga oshirishiga ishonilmagan. Chunki bu ikki davlatning diplomatik aloqalari juda qalin bo'lib, ular strategik sherik edi. Xotirjamlikka berilish oqibatida Putin rejimi avval Qrimni o'z

davlatiga qo'shib oldi. Keyin esa Ukraina hududiga ham quruqlik, ham havo orqali "harbiy amaliyot" boshladi.

**HAMYURLARIMIZ YAKDIL**

Aksar hollarda Prilepin kabi nusxalarning chiqishlariga rasmiy darajada e'tibor qaratilmayapti. Albatta, deputatlar yoki nodavlat tashkilotlarining javoblari bu o'rinda o'tmasligi shubhasiz.

Ammo bu galgi vaziyat boshqacha tus oldi. Davlat mudofaa vazirligi sarhadlarimiz daxlsizligi haqida Bosh qo'musimizda belgilangan normani keltirib, milliy armiyamiz suverenitetimizni himoya qilishga qudrati yetishini bildirdi.

Bundan tashqari, hali qizatilgan holat bo'ldi – O'zbekiston tarixida birinchi marta Rossiya elchisi Tashqi ishlar vazirligiga chaqirtirildi (aniqrog'i, taklif qilindi). Har holda rasmiyatchilik to'la-to'kis bajarildi.

Holatga davlat rahbarining chiqishi nuqta qo'ydi, deyish mumkin. Chunki Prezidentimiz o'z chiqishida tashqi bosimlar kuchayib borayotgani haqida to'xtaldi. Bunday vaziyatda milliy manfaatlarimizga mos to'g'ri yo'lni topish oson bo'lmayotganini qayd etdi.

Prilepinning bayonoti, balki bir chiqishi jamiyatimizni qaysidir ma'noda yagona maqsad – mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida birlashtirdi. Turli masalalar yuzasidan har xil fikrda bo'lgan hamyurtlarimiz suverenitet borasida yakdil bo'lishdi.

**Y.MARQAYEV.**



## AKADEMIKLARIMIZ

Prezidentimizning joriy yil 23-dekabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, bir guruh olimlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandi. Ular orasida samarqandlik quyidagi olimlar ham bor:

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA

**Ahmedov Bobomurod Jo'rayevich** - Fanlar akademiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti laboratoriya mudiri (Paxtachi tumani).

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA

**Namazov Shadman Ergashovich** - Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari (Past Darg'om tumani).

### FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich** - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori (Kattaqo'rg'on tumani).

### PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA

**Ibraimov Xolboy** - Toshmuhammad Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori (Payariq tumani).

## SAMARQAND ILMIY SALOHİYATI MAHSULI

Yaxshinor ALLAYOROV, SamDTU dotsenti.

"Zarafshon" gazetasi tahririyati ulug' ishga qo'l urib, "Samarqand akademiklari" nomli risolani chop ettirib, Sharqning gavhari bo'lgan Samarqandning azaldan ilm-ma'rifati markazi ekanligini yana bir bor keng kitobxonlar ommasiga eslatib qo'ydi.

**Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida dunyoning turli mamlakatlaridan jahonga mashhur me'morlar, olimlar, mashshoqlar, hunarmandlar Samarqand shahrida jam bo'lishgan. Mirzo Ulug'bek tashkil etgan Madrasai oliyada diniy ilmlar bilan bir qatorda sun'iy ilmlar: astronomiya, matematika, huquqshunoslik (fiqh), tibbiyot, adabiyot va boshqa fanlar chuqur o'rgatilganligi sir emas. Ushbu Madrasai oliyaning vorisi bo'lgan Samarqand davlat universiteti haqli ravishda bugungi kunda 603 yoshga to'lganligini e'tirof etish lozim deb bilaman.**



Samarqandda dastlab tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat tibbiyot instituti, qishloq xo'jaligi instituti, kooperativ instituti o'z sohalarini bo'yicha malakali, ilmiy kashfiyotlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan olimlarni yetishtirib bergan va hozirgi kunda ham bu ishlar davom etmoqda. Risolada qayd etilgan yigirma to'qqizta akademikning aksariyati men yaqindan tanigan, ko'plarining suhbatlaridan bahramand bo'lgan insonlar ekanligidan faxrlanaman.

Ayniqsa, akademik Vohid Abdullayevning turli davrlarda, auditoriyalarda va radio orqali so'zlagan jo'shqin nutq va ma'ruzalarini talabaliq davrimizda tinglab, madaniy o'zib olganmiz. Shuningdek, Toshpo'lat Shirinulov, Boturxon Valixo'jayev, Erkin Ergashevlarining hayotbaxsh suhbatlari xayolimdan ketmaydi. Akademiklarning sakkiz nafari Samarqand davlat tibbiyot instituti bitituvchilari bo'lgan. Isoq Musaboyev, O'ktam Oripov, Islom Zokirov, Nurmuhammad Muharjanyov, Rahim Hayitov, Hamid Mansurovning nomlari, ilmiy maqolalari, ixtirolari dunyoga mashhurdir. Ular haqida risolada batafsil ma'lumotlar berilgan.

Akademik I.Zokirovning shogirdi bo'lganligim uchun ustozimning shifokorlar uchun namuna bo'ladigan ba'zi bir xislatlarini eslab o'tmoqchi edim. Islom Zohidovich o'ta madaniyatli, xushmuomala, o'tkir zehnlil, xushchaqchaq, oilasi va shogirdlariga mehribon inson edi. Anton Pavlovich Chexov (asli kasbi vrach bo'lgan) "Vrachning yuzi ham, qalbi ham, kiyimi ham chiroyli bo'lishi kerak", degan. Xud-di shunday, Islom Zokirovning egnidagi xalat, boshidagi qalpoqcha doimo oppoq, kraxmallangan, dazmollangan, ko'ngin kishining havasi keladigan darajada bo'lar edi. Talabalarga ma'ruza o'qigani kirganlarida hamma bilan salomlashib, sizlab gap boshlar edi.

Institutni bitirib, 1969-yilda ustoz rahbarlik qilayotgan akusherlik va ginekologiya kafedrasiga klinik ordinator bo'lib ishga kelganimda domladan hayotiy tajribalari, ish yuritish uslubi, dars berish mahorati, bemorlarga bo'lgan munosabat, davolash va operatsiya jarayonlari bo'yicha bir umrlik saboq olganman.

1980-yil oktabr oyidan Samarqand viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga bosh akusher-ginekolog bo'lib ishga o'tganimda, ustoz menga kafedrada yarim shtat assistent bo'lib ishini davom ettirishimni tayinladilar. Chunki oliy ta'lim muassasasida talabalarga dars berish birinchidan, bilim darajasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi, keyin esa o'qituvchidan ta'lim olgan bo'lg'usi vrachlar respublikamizning turli viloyat va tumanlardagi shifoxonalarda ishlaydilar. Vaqti kelib, ish yuzasidan yo'lingiz tushib tumanlarga yoki shaharlarga borsangiz, sizdan ta'lim olgan, qarshingizdan chiqqan shogirdingiz "Assalomu alaykum, domla, xush kelibsiz!" deb peshvoz chiqsa, boshingiz ko'kka yetgudek xursand bo'lasiz. Shuning uchun bu dargohni hech qachon tark etmasdan, har ikkala ishni ham birga bajaravering, deb to'g'ri maslahat bergan edilar.

I.Zokirov O'zbekistonda Onalik va bolalikni muhofaza qilish, akusherlik va ginekologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, dunyoga taniqli olim sifatida 1995-yilda mamlakat akusher-ginekologlaridan yagona O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga saylandi. Domla bilan viloyatimiz tumanlari, qo'shni viloyatlar aholisi o'rtasida oilani rejalashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etib, soha mutaxassislarining malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan edi. 2021-yil yanvar oyida akademik Zokirov tavalludining 95 yilligi oldidan Samarqand

# CHO'G' USTIDA

## UY-MUZEYDAN BEHBUDIYNING HAYOT BO'LGAN

"Holo oyinai jahon statistiqalariga boqilsa, mus'atcha (hudud) Buxoroni to'rtidan biri, nufusga (aholi soniga) taqriban barobar, Serbiya mamlakatini 2 milliyon xalqi uchun 60 tadan ziyoda gazeta nashr bo'latur. Inchunin, 2.5 milliyon yunoniy greklarni 200 ziyoda gazetasi bordur. 3 milliyonga yaqin Xiva, Buxoroni bir adad gazetasi yo'qdur. 9 milliyon O'rta Osiyo musulmonlarini bir gazetasi, (tag'in) bir gazeta chiqarmoqqa salohiyati, iste'dodi yo'qdur!"

Hayhot! Ibrat lozim!" (Mahmudxo'ja Behbudiy)

Insoniyat tarixidagi hech bir yangilik osonlik bilan qabul qilinmagan. Ayniqsa, u ma'naviyatga, fikrat va qarashlarimizga, ongu shuurimizga, biz ko'nikkan qoliplarni sindirishga doxil bo'lsa. Butun umrini, kuchini, bilimini shu yo'lda sarflagan, har qanday muvaffaqiyatsizliklarga sabr bilan yondashsa-da, o'z maqsadidan qaytmagan, qo'lidagi ma'rifat chirog'ini, imkonli boricha, umrining oxiriga qadar mayoqday ko'targan dahoyu avliyo, valiylarga to'la yurt bu. Ular turli davrlarda zulmat qoplayotgan muhitni yorib chiqqan, qo'lidagi mash'alani ko'tarib yurish nechog'lik mushkul bo'lmasin, bunga chidagan ma'rifatparvarlardir.

### BIR ASRDAN SO'NG XIZMATLARI ULUG'LANDI

Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko'chasi, 47-uyda butun umrini cho'g' ustida yurib o'tkazgan jaded bobolarimizdan biri - Mahmudxo'ja Behbudiy yashagan. Aynan shu yerda vohadagi ilk pesa dunyo yuzini ko'rgan va shu xonadonda spektakl shaklida ijro etilgan, shu yerda shaharda ilk bor barcha uchun eshiklari ochiq kutubxona tashkil etilgan, shu xonadonda hududning ilk gazetasi chop etilgan va unda o'tkir, dolzarb maqolalar bitilgan, shu yerda usuli jadid maktablarining tamal toshi qo'yilgan, darsliklar yozilgan... Bunday zahmatli mehnatlarni sanabgina adog'iga yetolmaysan kishi.

Ushbu uy-muzey mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlaridan so'ng 2021-yilda tashkil etilgan: "2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi.

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz mero-sini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadri ni anglab yetadi".

Prezidentimizning aynan shu fikrlaridan so'ng Behbudiy hazratlari "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi va bu yuksak mukofotni uning evaralari qabul qilib olishdi.

Mana, shu tarixiy hodisaga ham ikki yil bo'ldi. Aslida bu maskan ma'rifat sochuvchi, ijodkorlarning doimiy borarog'hi bo'lishi kerak. Bu maskan sizni o'tmishga chorlaydi, jadidlarining hayotiga, faoliyatiga turli prizmalardan yana bir nazar tashlashingizga imkon beradi. Sizga kuch beradi, buguningiz haqida xulosa chiqarishga ko'makka keladi.

Qariyb yetti sotix maydondagi uy va hovlidan (aslida 21 sotix bo'lgan, ayni paytda qolgan maydonlar ham uy-muzeyga ajratilishi uchun sa'y-harakatlar olib borilmoqda) iborat muzeyda nafaqat Behbudiyga tegishli bo'lgan ashyolar, balki o'sha paytdagi jadidlar hayoti va faoliyatini ko'rsatib beruvchi yuzga yaqin eksponat mavjud.

### BEHBUDIY KIM EDI? YOZUVCHIMI, JURNALISTI, QOZIMI?

- Buyuk ma'rifatparvar, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, noshir, jurnalist, XX asrning boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining yirik namoyandasi va jadidchilik harakatining rahnamosi - Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshstepa qishlog'ida dunyoga kelgan, - deydi uy-muzey mudiri Gul-

davlat tibbiyot universitetining rektori, professor J.Rizayevning tashabbusi bilan domla rahbarlik qilgan 1-akusherlik va ginekologiya kafedrasiga akademik I.Z.Zokirov nomi berildi va universitetning morfologiya binosiga barelef o'rnatildi.

Talabalikdan yaxshi bilganligim uchun akademik Eshjanov Tursunboy Boyjanovich haqida qisqacha ma'lumot. T.B.Eshjanov 1965-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini bitirib, farmakologiya kafedrasida stajyor-tadqiqotchi, keyinchalik assistent lavozimida ishlab, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagandan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasiga ishga ketgan edi. Bizning guruhimizga farmakologiya fanidan dars o'tgan paytlarida u kishining o'ziga va talabalarga nisbatan o'ta talabchanligi, ishchanligi va fidoyi inson ekanligi sezilib turar edi. T.Eshjanov o'tkir zehnlil, quvvayi hofizasi juda mustahkamligiga guvoh bo'lganman.

1997-yilda Sog'liqni saqlash vazirligining ishchi guruhi a'zosi sifatida Nukus shahriga borib, Respublika Sog'liqni saqlash vaziri T.B.Eshjanov bilan uchrashishga to'g'ri kelgan. Kabinetiga kirib salomlashgandan so'ng "Yaxshinor, Qoraqalpog'istonga xush kelibsan", deganda, 30 yil o'tgandan so'ng ham o'zi o'qitgan talabani eslab qolganligiga, xotirasiga qo'yl qolganman. Ana shunday olim jahonga mashhur kashfiyotlar qilib, haqli ravishda akademik darajasiga erishganligidan mamnunman.

Samarqandlik jahonga mashhur yana bir akademik Rahim Hayitov to'g'risida ham qisqacha o'z fikrimni bayon etishni lozim deb topdim. Rahim Musayevichni talabalik davrimizdan yaxshi bilaman. Mendan ikki kurs oldin o'qir edi. Rektorning, keyinchalik Samarqand shahar partiya qo'mitasi birinchi kotibining o'g'li bo'lishiga qaramasdan, institutdagi eng namunalil xulq egasi, iqtidorli, a'lochi talaba edi. Talabalik davridan ilmiy izlanishlar olib borib, 1967-yil institutni bitirgandan so'ng sakkiz oy o'tib, 1968-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi. Men klinik ordinator paytimda Rahim Musayevichning onasi, dotsent Zoya Ma'rupovna Rasuliga shogird sifatida biriktirilgan edim. Shu tufayli R.Hayitovning keyingi faoliyati bilan ham yaxshi tanishman.

Samarqandliklar uchun eng quvonarli shundaki, mening bilishimcha, sobiq sho'rolar davrida O'zbekistondan bir nafar SSSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi bo'lardi, u kishi O'zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti Obid Sodiqov edi. Undan keyingisi SSSR tarqalgandan keyin Rossiya Meditsina Fanlar akademiyasi va Rossiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi Rahim Musayevich Hayitov edi. R.Hayitov 1988-yildan 2014-yilga qadar 26 yil davomida Immunologiya ilmiy-tadqiqot institutiga rahbarlik qildi. Aytish mumkinki, jamiyatda olamshumul kashfiyotlar yaratgan samarqandlik akademiklar to'g'risida risola chop etilib, kitobxonlarga taqdim etilishi ham olamshumul voqea, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

mamat Ahmedov. - Mahmudxo'ja Ahmad Yassaviy sulolasidan bo'lib, otasi Behbudxo'ja, bobosi Solixo'ja va katta bobosi Niyozxo'ja Samarqandning nufuzli oilalarining namoyandalari bo'lganlar, qorilik va imomlik bilan tirik-chilik qilganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida Samarqandda katta tog'alari Muhammad Siddiq yordamida xat-savod chiqaradi. Keyin otasi Qur'onni o'rgatadi. 15 yoshida tog'asi muftiy Odil huzurida ilm olishga kirishadi. Bu yerda u arab tili grammatikasiga va zamonaviy fanlarni o'rgana boshlaydi. 1889-yil Chashmaobod qishlog'ida qozilik qila boshlagan tog'asi Muhammad Siddiqning huzurida mirzalik qiladi, shuning barobarida muftilikka tegishli bo'lgan shariat qoidalarini o'rganadi. Keyinchalik ish faoliyatini Kobut volosti (bugungi Samarqand, Toyloq va Jomboy tumanlari hududi) da mirzalikda davom ettirgan. O'qib-o'rganishga bo'lgan iqtidori tufayli o'z davrining yuksak e'tiborli lavozimi - muftilik rutbasiga erishdi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, hatto bugun mamlakatimizda sud-huquq islohotlari tarixini ham Behbudiy bilan bog'lashga urinishlar mavjud. Negaki, aynan Behbudiy o'g'irlik uchun qo'li kesilgan kishi oilasiga, jamiyatga qanchalik ziyon keltirishini raqamlarda hisob-kitob qilib beradi va afv tushunchasini kiritadi.

1899-yili Maxmudxo'ja Behbudiy Haj safariga chiqadi va bu safar sakkiz oyga cho'zildi. Mahmudxo'ja Behbudiy safar davomida turli mamlakatlar ahvoli, voqea-hodisalardan voqif bo'ladi, dunyoqarashi kengayadi va fikri o'zgaradi. M.Behbudiy Turkistondagi siyosiy jarayonlarni har tamonlama tahlil qilib, Oq poshsho mustamlakasi ostida bir necha o'n yillar davomida ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan qulga aylangan xalq bilan ozodlikka chiqish mumkin yemasligini anglab yetadi.

Ana shu safari davrida Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonning Chor Ros-siyasidan ozod bo'lish yo'llarini qidirdi va Samarqandga qaytgach, o'sha zamonning dunyoqarashi keng bo'lgan insonlari bilan tariximizning tanazzul bosqichlari va sabablari yuzasidan munozara va taftishlar olib boradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z yurtining ozodlikka erishishi uchun eng avvalo, ozod yurtini boshqara oladigan va o'z yurtini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan yangi avlodni tarbiyalash zarurligi g'oyasini oldinga suradi va shu g'oyalarni amalda tatbiq etish boshlaydi.

1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoiy va Rajabamin qishloqlarida domla Siddiqiy va domla Shakuriy bilan hamkorlikda yangi maktablar ochildi.



### BEHBUDIYNING BIRGINA NEVARASI HAYOT

Muzeyda Behbudiy asarlari, chiqqan gazetalarining ilk sonlari, o'sha davrga oid jihozlari mavjud ijodxonasi, o'zi tashkil etgan kutubxona, usuli jadid maktablarining ko'rinishi, o'sha davrlarda truppalarning tayyorlanishi uchun sahna zal hamda Behbudiyga tegishli boshqa buyum va ashyolar, shuningdek, Samarqand davlat universitetining Mahmudxo'ja Behbudiy merosini o'rganish ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi ham mavjud. Jadid bobo-miz foydalangan kitoblar, lavh, qo'l yordamida ishlatiladigan litografiya dastgohi esa o'sha paytlar Germaniyadan keltirilgan.

Muzeyni aylanarkanmiz, Behbudiy oilasi bilan bog'liq faktlarni ko'zdan kechirdim. Bugungi kunda u kishining evaralari, xususan, Shoxruh, Zarrux Behbudiyilar haqida ommaviy axborot vositalarida ko'p ma'lumotlar berilgan. Ammo u kishining yagona nevarasi ham bugun hayot ekanligini shu muzeyda bildim. Bildim-u, darhol Samarqand shahri Qo'shtamg'ali mahal-lasi tomon yo'lga tushdim.

### MUZEY HAQIDA BIR NOXUSH VA XUSHXABAR

Hali Nazirxon Behbudiy bilan suhbatimni keltirishdan oldin muzey xodim-laridan so'rab olganim, bir faktini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Bugun mazkur muassasa ma'rifatparvar bobolarimiz hayotini aks ettirib bera oladigan darajada jihozlangan. Bu yerda amaliy darslar o'tish uchun ham yaxshi imkoniyat bor. Ammo afsuski, shu atrofda to'rt-beshta maktabdan tashqari bu yerda boshqa ta'lim muassasasidan ziyoratчилar kelmas ekan. Vaholanki, viloyatda mingdan ziyod ta'lim muassasalari mavjud, ularning barchasining darsliklarida jadidlar faoliyati bilan bog'liq mavzu bor.

Muzeyga oid yana bir yangilik - Behbudiy xoki qayerdaligini aniqlab, uni shu yerga keltirish va ramziy qabrini hamda byustini barpo etish rejalashtirilmoqda. Behbudiy o'limi bilan bog'liq ma'lumotlar ham o'sha davr gazetasi-da qayd etilgan. Xususan, Hoji Muin Shukrulloh "Inqilob" jaridasida Behbudiy hazratlarining qanday shahid bo'lgani haqida shunday yozadi: "...bek (Qar-shi begi) Behbudiy afandi va yo'ldoshlarini ham o'ldurg'a buyurg'an va alar zindonning yonidagi podshohlik chorbog'iga yuborilgandir. Shunda alarning qatlari o'zlariga bildirilg'on va o'z'lari uchun shu yog'da to'rt qabr qozdirul-g'on. So'ngra Behbudiy afandi va Yoldosh tahorat olib, namoz o'qimoqchi bo'lg'anlar. Lekin shul chog'da rahimsiz jalloid muovinlari ila yetib kelib, alarni namoz o'qurg'a qo'ymag'on va eng avval Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan, so'ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning jasadlarini chiqarib, o'z'lari qozg'on qabrlarida ko'mganlar va qabrlarini (bilin-masun deb) yer ila tekis etganlar".

### "BOBOMNING KIMLIGINI MUSTAQILLIK TUFAYLI ANGLADIK"

Behbudiyning bugun hayot qolgan yagona nevarasi Samarqandning qadim mahallalaridan biri - Qo'shshovuzda istiqomat qilgan. Darvoqe,



# KECHGAN UMR

## YAGONA NEVARASI YASHAYDIGAN MANZILGACHA

uning avlodlariga yuqoridagi uy-muzeyda yashash nasib etmagan. Buning sababini anglagandirsiz. Ammo suhbat davomida buni aytib o'tamiz.

Nazirxon ota bilan suhbatimiz asosiy jihozlari bobolarining suratlarini tushirilgan kamtargina xonada kechdi.

- Bobom Mahmudxo'ja Behbudiyning to'rt nafar farzandi bo'lgan, to'ng'ichi mening otam Ma'sudxon, ammam Surayyo, Maqsudxon va Matlubxon, - deya gapirib beradi Nazirxon Behbudiy. - Afsuski, bir o'g'illari yoshligida og'ir xastalikdan vafot etadi, ikkinchi o'g'illari urushda bedarak ketadi. U kishining hech bo'lmasa qabrini uzoq yillar izladik, ammo natija bo'lmagandi. Shu tariqa Behbudiy avlodi to'ng'ich o'g'li Ma'sudxon orqali davom etdi. Otamning to'rt o'g'ildan biriman, katta akalarim - Mithat, Shavkat, Nadimxonlar bu foniy dunyoni tark etdilar. Bobom Mahmudxo'ja Behbudiyning ulug' inson ekanliklarini faqatgina filologiya fanlari doktori, professor Nadimxon akam yaxshi anglaganlar. Ilk marta 1983-yilda bobom haqida maqola chiqqanda juda hayratga tushganmiz.

Bilishimcha, otam bobomning fojiali halokatidan so'ng turli ta'qiblariga duch kelmaslik uchun mana shu hovliga ko'chib kelib, yashay boshlaganlar. U kishining barcha mol-mulki musodara etilgan. Va bobom haqida deyarli gapirmaganlar, ko'cha-kuyda og'zimizdan gap chiqib ketishidan cho'chiganlar, shekilli. Otam Ma'sudxon bobomning tarbiyasini olganlar va o'zlari yozganlaridek, to'rt tilda bemalol so'zlashganlar. Bolaligi o'tgan o'sha uyda ularga maxsus o'qituvchilar rus, fransuz tillaridan dars berganini aytib berganlar. Otam bilan ammam Parvinaning har zamon fransuz tilida so'zlashganlariga o'zim ham ko'p guvoh bo'lganman. Otam bu yerdagi ta'qiblardan qochibimi, yo boshqa sababmi, Dushanbedagi pedagogika institutida tarjimon bo'lib ishlaganlar. Oilasi, ya'ni biz, shu yerda, u kishi har necha oyda bir kelib ketardilar. Aytishim kerak, onam Saidam ham maktab ko'rgan, xat-savodli ayol edilar. Onamning onalari, ya'ni buvim qizlarining xat-savodini chiqarganlar, o'zlari Hofiz devonlarini yoddan bilganlar, deyishadi.

Ularning turmush qurishi ham qiziq bo'lgan. Bobom Mahmudxo'ja Behbudiy to'ng'ich o'g'li, ya'ni otamga kelin izlaganlarida onamning tog'alari jiyalarim bor, istasangiz ko'ring, deganlar. Shu tariqa onamga sovg'ini ko'rganlar. Buvim, ya'ni onamning onalari avvaliga qarshilik ko'rsatganlar "yo'g'a, kofirga qiz bermayman", deya. Buni qarangi, oddiy aholi orasida ma'rifatparvar bobomizning jon kuydirib qilayotgan mehnatlarini mana shunday ma'no kasb etgan. Katta tog'am Behbudiy oilasidagi vaziyatni tushuntirgach, to'y bo'lgan. Onamning aytishicha, bobom, juda salobatli, tik qarab gapirishga odam hayiqadigan kishi bo'lgan ekanlar. Qayerga bormasinlar, odamlar u kishi bilan ko'rinish uchun beixtiyor o'rinaridan turar edilar, deya eslandilar onam.

Otam uzoqda ko'p bo'lganlari uchun asosiy tarbiyani onamdan olganmiz. U kishining sa'y-harakatlari bilan bobomning nomi hamon avlodlariga muhrlanib ke-



layotgan bo'lsa kerak. Hozir chevaralaridan birining ismi Mahmudxo'ja Behbudiydir. Otaxon bilan gaplasharkanmiz, Behbudiyning evara, chevaralari katta bobolari istaganday ikki emas, to'rt tilda bemalol so'zlashayotganidan xursand bo'lamiz. Kichik Mahmudxo'ja esa katta bobosining izdoshi bo'lsa ne ajab?!

Gulruh MO'MINOVA.

**PS.** Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'tgan hafta Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida jadic bobolarimiz haqida alohida to'xtalib o'tdi: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadic bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonda barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir". Maqolaga bundan ortiq xulosa bo'lmasa kerak. Ammo gazetamiz orqali jadic bobolarimiz asos solgan ma'rifat nurlari hamon portlab kelayotganida bugunning ziyolilarining ham xizmati ulug'.

# LUG'ATCHILIK TILDAN AMALIY FOYDALANISH IMKONIYATINI OSHIRADI

**Azamat PARDAVEY,**  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti o'zbek tilshunosligi  
kafedrasini professori.

Lug'atlar xalq tarixidagi muayyan davrning ko'zgusi, mahsuli bo'lib, xususan, o'zbek lug'atchiligi ming yildan ortiq tarixga ega. O'tgan davr mobaynida tilimizning ming bir jilosini o'zida mujassam etgan nodir lug'atlar yaratildi. Ularning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, ehtiyoj va turli sohalar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan.

So'nggi o'n yillik lug'atchilik tilshunoslikning eng tez taraqqiyotga ega va eng tez o'zgaruvchan sohasi ekanligini yaratilayotgan lug'atlar ham isbotlamoqda. Chunki muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq ravishda rang-barang lug'atlar yuzaga kelishi, umuman, lug'atchilik taraqqiyoti til va uning egasi bo'lgan millatning taraqqiyoti, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi.

Lug'atlar lingvistik adabiyotlar ichida tillararo munosabatni ta'minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq qilish, til me'yorlarini belgilash, jamiyat a'zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o'stirish, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishda bebaho xazinadir. XX asrda o'zbek lug'atchiligi ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, frazeologik, dialektal, etimologik lug'atlar kabi yangi turlar bilan boyildi va bu borada ko'plab lug'atlar yuzaga keldi. Birgina filologik lug'atlarni sanab o'tishning o'zi bu borada amalga oshirilgan ishlar ko'lamining nechog'lik keng ekanligini ko'rsatadi. Masalan, A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati", S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning "O'zbek tilining imlo lug'ati", A.G'ulomov, A.Tixonov va R.Qo'ng'urovning "O'zbek tili morfem lug'ati", H.Berdiyev va R.Rasulovlarning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati", Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" va boshqa lug'atlar shular jumlasidandir.

Yaratilgan lug'atlar ichida tilimizning go'zalligini, nafosatini, muhimi, mohiyatini anglatish uchun yaratilgan turi borki, bu haqda so'z yuritmasak bo'lmaydi. Bu - "O'zbek tilining chappa lug'ati"dir.

"O'zbek tilining chappa lug'ati" 1968-yilda professorlar Rahmatulla Qo'ng'urov va Aleksandr Tixonovlar tomonidan nashr etilgan edi. Lug'at turkiy tillar doirasida shunday lug'atlar tuzishdagi birinchi tajriba edi. Lug'at o'z davrida nashr etilgan va nashr etilayotgan izohli, imlo hamda ikki tili lug'atlardan farqli o'laroq so'zlar birinchi tovush-

larga qarab emas, balki oxirgi tovushlarga qarab joylashtirilgan. Misol uchun: "matbaa", "mutolaa", "mudofaa", "mufofaa"...

Ta'kidlash joizki, chappa lug'at yaratilgandan buyon o'zbek tilshunosligida doimiy tadqiq etib borishni talab qiladigan sohalar - affiksalar omonimiyasi, affiksalar sinonimiyasi, o'zbek tili affiksalar tarkibi, affiksalar har xil tipdagi negizlarga qo'shila olish yoki qo'shila olmasligi, affiksalar mahsuldorlik yoki kam mahsullik darajasi kabi masalalarini o'rganishda muhim manba hamdir. Shuningdek, o'zbek tili fonetik qonuniyatlarini, jumladan, so'z oxirida tovushlarning birikishi, affiksalaridagi tovushlarning birikishi qonuniyatlari bilan bog'liqliq masalasini aniqlashda chappa lug'at birmuncha qulayliklar tug'diradi.

Lug'at ilm ahli va ijodkorlarga, talabalar va keng jamoatchilikka beminnat xizmat qilib kelayotgan bo'lsa-da, uni milliy matkuramiz talablari asosida qayta ko'rib chiqish va mustaqillik yillarida tilimizda ro'y bergan leksik o'zgarishlar bilan boyitish maqsadida 2014-yilda SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori Suyun Karimov tashabbusi bilan "O'zbek tilining chappa lug'ati" ikkinchi marta qayta nashr qilindi.

Chappa lug'atning muhim ahamiyati, shoirlarga, o'zbek she'riyat sirlarini o'rganuvchilar uchun eng muhim qo'llanma sirasiga kiradi. Chunki unda o'zbek tilidagi qofiyadosh so'zlarning barchasi bir joyga o'rnashgan bo'lib, lozim topilganda, undan bemalol foydalanish mumkin. Shoirlar kerak bo'lgan qofiyadosh so'zlarni axtarib topishga ko'p vaqt sarflaydilar. Ushbu lug'at yaratilganiga qadar bu ishda shoirlarga o'z xotirasi va tafakkuridan boshqa hech qanday yordamchi yo'q edi. Kerak bo'lgan qofiyadosh so'z hamma vaqt xotiraga kelavermasligini inobatga olsak, bu borada chappa lug'at shoirlarning ishini ancha yengillashtirishi ma'lum bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, joriy yilda chappa lug'at "Zarafshon" gazetasi kutubxonasi turkumida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini bosh muharriri Farmon Toshev tashabbusi bilan uchinchi marta lotin alifbosida nashr qilindi. Ushbu savobli yumushni amalga oshirganliklari uchun viloyat "Zarafshon" gazetasi ijodiy xodimlariga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz. Zero, amaliy jihatdan o'zbek tilining nafis va nozik jihatlarini namoyon etishga mo'ljallangan lug'atni yirik adadda

qayta nashr qilib, kitobxonlarga tarqatilishi davr ziyolilari amalga oshirishlari lozim bo'lgan muhim vazifalardan biridir. Binobarin, lug'atni qayta nashr etish ijtimoiy-siyosiy buyurtmani bajarish bilan birga, o'zbek tilidan foydalanish samaradorligini oshirishga hamda o'quvchilarning savodxonligi va nutq madaniyatining o'sishiga xizmat qiladi.

### "JURNALISTLIGINGNI TASHLAMA, BOLAM!"

To'plamda "Zarafshon" gazetasi tahririyatida ishlayotgan xodimlarning mulohazali, odamlarni o'ylashga, mushohada yuritishga chorlaydigan, mutasaddilar oldiga aniq savollar qo'yilgan "Mulohaza uchun mavzu" ruknidagi maqolalari o'rin olgan.

Asar bundan avval chop etilgan "Biz "Zarafshon" danmiz" (2013-yil) va "Mulohazadan mushohadaga" (2015-yil) nomli kitoblarning mantiqiy davomidir.

### "ZARAFSHON" - QADRDON DARGOHIM"

Yuzlab ijodkorlar, jurnalist va publitsistlarning hayoti shu qutlug' dargoh bilan bog'langan. Tahririyat ijodkorlariga haqiqiy dorilfunun va tarbiya o'chog'i bo'lgan. Ular shu tabaruk maskanda qalam sarhini his qilgan, mashaqqatli ijod yo'llarini o'zlaridan oldin faoliyat yuritgan ustoz qalamkashlardan o'rgangan va albatta, xalq dardini tinglab, gazeta sahifalariga joylagan.

Ushbu kitobda "Zarafshon"ni qarddon dargohi deb bilgan, shu yerda ishlagan yoki o'z maqolalari bilan gazeta dovru'g'iga dovru'g' qo'shgan ijod zahmatkashlari haqida yozilgan.

### "ZARAFSHON"NING FIDOYLARI"

Gazetada o'tgan vaqt davomida yuzlab fidoi, bilimdon, zahmatkash va mahoratli jurnalistlar ishladi. O'z kasbining ustasi bo'lgan bu qalam ahlining tajriba va mahoratidan nafaqat yosh muxbir va ijodkorlar, balki minglab gazetxonlar ham bahramand bo'lgan.

Kitobda tabarruk gazeta tahririyatida ishlagan va jamoatchi muxbir sifatida o'tkir maqolalari bilan nashr sahifalarini bezagan matbuot fidoilari haqida so'z yuritilgan.

### "HAYOT BILAN HAMNAFAS"

Shu yilning 14-sentabrida Toshkent shahridagi Milliy matbuot markazida "Zarafshon" gazetasi 110 yilligi va "Самаркандский вестник" gazetasi 105 yilligi munosabati bilan "Hayot bilan hamnafas" nomli ma'naviy-ma'rifiy anjuman hamda ijodkorlar o'rtasida shaxmat musobaqasi o'tkazildi.

Anjumaning muxtasar tafsiloti, tadbir mehmonlari - yurtimizning tajribali jurnalistlari dil so'zlari hamda anjumaning qaynoq jarayonlaridan tayyorlangan lavhalar ushbu kitob-albom sahifalaridan joy olgan.

Yuqoridagi kitoblar Toshkent shahridagi "Sahhof" nashriyotida chop etilgan.

Tahririyatimiz o'n yildirki, ushbu rukn ostida samarqandlik ijodkorlar, jurnalistlar asarlarini chop etib kelmoqda.

Joriy yil "Zarafshon" gazetasi 110, "Самаркандский вестник" gazetasi 105 yilligi munosabati bilan 8 ta kitob o'quvchilarimiz hukmiga havola etildi.

## Zarafshon

### GAZETASI KUTUBXONASIDAN

#### "SAMARQAND AKADEMIKLARI"

Risolada Samarqandda faoliyat ko'rsatib, ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan 29 nafar akademik hayoti, ijodiy hamda ilmiy faoliyati to'g'risida bayon etilgan.

Kitobga kiritilgan yurtimizning yetuk olimlari haqidagi ma'lumotlar ilm-fan ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlar uchun ibrat maktabi sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

#### "O'ZBEK TILINING CHAPPA LUG'ATI"

So'zlar teskari alifbo tarzida tartiblangan bu lug'at tilshunos tadqiqotchilar, grammatika, morfologiya va so'z yasashga oid kuzatishlar olib borayotgan izlanuvchilar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi. Shuningdek, nazmiy adabiyot nazariyasida sa'j' va qofiya tizimini o'rganishga kirishgan bakalavr va magistrantlar, ilmiy xodimlar hamda she'riyat bilan shug'ullanuvchilarga juda foydali.

#### "ZARAFSHON"

##### MUHARRIRLARI"

Bir asrdan ziyod vaqt mobaynida o'zbek matbuoti tarixida munosib o'rin egallagan, "Samarqand", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Lenin yo'li" nomlari bilan chop etilgan hozirgi "Zarafshon" gazetasi tahririyatida ne-ne zotlar ijod qilmagan, deysiz.

Ikkita jahon urushi, undan keyingi yillar suronida pishgan, mustaqillik davrida zahmati va shijoati bilan xalqimiz ko'ngli-dan joy olgan muharrirlarning faoliyati alohida ilmiy tadqiqotlarga manba bo'la oladi.

Kitobda gazetaga muharrirlik qilgan 31 nafar matbuot fidoilari haqida o'qiyisiz.

#### "ANQABOY XUDOYBAXTOV KIM EDI?"

Ushbu kitobda 1928-yilda "Zarafshon" gazetasi muharrirlik qilgan jurnalist, adabiyotshunos, adib va dramaturg Anqaboy Xudoybaxtovning hayoti, ijodi va faoliyati haqida ma'lumotlar jamlangan.

Atigi 35 yil umr ko'rgan A.Xudoybaxtov o'tkir mavzulardagi maqolalari bilan ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojiga, o'zbek matbuoti ishini yaxshilashga, radioeshittirishlar saviyasini oshirishga munosib hissa qo'shgan.





## Samarqandlik yoshlar e'tirof etildi

Mahalladagi yoshlar yetakchilari o'rtasida uch bosqichli "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovi o'tkazilishi belgilangan. Yaqinda Toshkent shahrida ushbu ko'rik-tanlovning respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovning "Tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlar bilan samarali ishlagan eng namunali mahalla yetakchisi" yo'nalishida Past Darg'om tumani Besh nayman mahallasi yoshlar yetakchisi Jamol Xudoyberdiyev ikkinchi o'rinni egallab, tashkilotchilarning diplom, statuyetka, estalik sovg'alari hamda 20 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Kattaqo'rg'on shahri Amir Temur nomli mahalla yoshlar yetakchisi Dostonjon Shukrullayev ushbu tanlovda uchinchi o'rinni egalladi va 15 million so'm pul mukofoti ni qo'lga kiritdi.



## "Sheroz qal'a" ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi

Viloyat madaniy meros boshqarmasi hamda Bulung'ur tumani hokimligi hamkorligida tumanidagi madaniy meros obyektlarining bugungi ahvoli o'rganildi.

- Bulung'ur mahallasi Amir Temur ko'chasida joylashgan XIX-XX asrlarga oid, ilgari nasroniylik cherkovi, keyinchalik "Barkamol avlod" bolalar markazi sifatida foydalanilgan bino ta'mirlab ahvolga kelib qolgan, - deydi madaniy meros obyektlarini asrash va turizm hududlarini loyihalashtirish institutining tarixiy obidalar bo'yicha bosh arxitektori Mamatqul Xoliqulov. - Binoni 2024-yilga mo'ljallangan me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash bo'yicha davlat dasturiga kiritishni maqsad qilganmiz. Ushbu binodan kelajakda muzey sifatida foydalanish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, tumanda yuz yillik eski quduqlar holati ham o'rganildi.

O'rganish davomida mutasaddilar "Sheroz qal'a" madaniy yodgorligini tumanning eng diqqatga sazovor joylari toifasiga kiritish, maskanni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirib, sayyohlar uchun sharoit yaratish masalalarini ham muhokama qilishdi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# "IPAK YO'LI"

AKSIYADORLIK INNOVATSIYA TIJORAT BANKI  
UMAR MINTAQAVIY FILIALI

barcha yurtdoshlarimizni yaqinlashib kelayotgan yangi

## 2024 yil

bilan samimiy qutlaydi.

Xizmatlar litsenziyalangan

# UZTELECOM

AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
SAMARQAND FILIALI JAMOASI

jannatmakon yurtimiz farzandlari va barcha hamkasblarini

## Yangi yil

bilan tabriklaydi.

Xizmatlar litsenziyalangan

### RAHMAT SIZGA, SHIFOKORLAR!

Pensiyadaman, yoshim sakson yettida. Salomatligimni tiklash maqsadida turli shifoxonalarda tez-tez davolanib turishimga to'g'ri kelmoqda.

O'zining shirin so'zi, muolajalari bilan bemorlar dardiga davo bo'layotgan Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi boshlig'i Xumoyun Hamrayev, urologiya bo'limi mudiri Oybek Bobomurodov, vrach-ordinator Yunus Yusupov, katta hamshira Nigora Jalilova, muolaja hamshirasi Lidiya Usmonova va Kattaqo'rg'on shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi koordinatori Mo'tabar Eshmurodovlarning xizmatlari uchun minnatdorchilik bildirdim.

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi 2024-yil bilan muborakbod etaman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda ulkan muvaffaqiyat tilayman!

Gafar BEKMURODOV,  
mehnat faxriysi.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Ibragimova Xalimaga (2005-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ibragimova Dilfuza

Anorboyevnaga (2023-yil 16-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Ibragimova Salomatga (2019-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jam-

shid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.**

### BEKOR QILINADI

Sotuvchi Alimova Xayitoy Xadjayeva hamda sotib oluvchi Achilov Farhod Farmonovichlar o'rtasida Samarqand tumani Yangiariq mahallasida joylashgan, umumiy maydoni 900,0 kvadrat metr, qurilish osti maydoni 258,96 kvadrat metr, foydali maydoni 215,29 kvadrat metрни tashkil etgan dala shiyponi binosi (yer maydonisiz) uchun "BEST REALTOR" mas'uliyati cheklangan jamiyat Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida to'g'ridan-to'g'ri

muzokaralar o'tkazish natijasida 2018-yil 29-avgustda tuzilgan 214-sonli kelishuv bayonnomasi, mazkur bayon-noma asosida 2018-yil 29-avgustda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi va 2018-yil 29-avgustda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi jamoasi viloyat perinatal markazi direktori Lola Hamroyevaga otasi **Qahhor HAMROYEV**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 334 nusxada chop etildi. Buyurtma 693. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda